

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHEKNT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK:330.3 575.1

BOYEV ASADBEK KOMILJON O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDAGI INVESTITSIYA SALOHIYATINI ANIQLASH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro
moliya mutaxassisligi bo‘yicha**

Magistr Akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: prof., I. Alimardonov

Toshkent – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Moliya" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

4 - sonli bayonnoma « 30 » aprel 2023-yil.


Kafedra mudiri

Xudoyqulov.X.X.


imzo sana


Ilmiy rahbar:

I. Alimardonov


imzo sana

Talaba:

Boyev A


imzo sana

Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

2023 yil

« 14 » may

№ MBF-01/5 raqami bilan ro'yxatga olindi

Fakultet dekani _____

ANNOTASIYA

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarni foydasiz turib qolishi yoki investitsiyadan samarali foydalanishda yuzaga keladigan tavakkalchilik hamda xatarlilik darajalarini aniqlamaslik oqibatida ishlab chiqarish jarayonini to'liq quvvat bilan ishlashini chegaralanib qolishi kabi muammolarni oldindan ko'ra bilish va ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish, korxonalar faoliyatini barqaror o'sishini, global raqobatbardoshlikka erishishini ta'minlash mamlakatda investitsiya salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni chuqur va har tomonlama tahlil qilishni, ular orasidagi miqdoriy bog'lanishlarni aniqlashni taqozo etmoqda.

O'zbekiston hududlari o'zining rang barangligi bilan ajralib turadi. Shu bois salohiyatli investorga investitsiyalash to'g'risidagi qarorni qabul qilishi uchun har bir hududning investitsion salohiyati to'g'risidagi ob'ektiv axborot mavjud bo'lishi lozim. Hududlarning investitsion salohiyatini baholash tizimini yaratish esa davlatning va hududlarning rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Mamlakatning investitsion salohiyatini o'rganish, uni har tomonlama ilmiy-uslubiy asosda ochib berish, eng avvalo, mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion, mehnat salohiyatini tadqiq etishni hamda ushbu sohada ilmiy qarashlarni tahlil etishni taqozo etadi. SHunday ekan, investitsiya jarayonlarini rivojlantirish, ularni moliyaviy ta'minlashni hamda investitsiya loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning usul va vositalarini takomillashtirish jarayonlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ob'ekti bo'lib, "O'zbekneftgaz" AJ hamda boshqa aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya salohiyatini aniqlash mexanizmini takomillashtirishning 2018 yildan 2022 yilgacha bo'lgan davrdagi ko'rsatkichlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: *investitsiyalar, investitsiya faoliyati, investitsiya loyihasi, moliyalashtirish, investitsiya krediti, sindikatli kredit, qimmatli qog'oz, kapital, risk, depozit, investitsiya portfeli*

ANNOTATION

Anticipating problems such as the fact that investments in the world economy are now unprofitable, or the risk that arises in the effective use of investment, as well as the inability to determine the levels of risk, will limit the production process to work at full capacity and develop scientifically based measures, ensure stable growth of enterprise activities, achieving global competitiveness – the country assumes a deep and comprehensive analysis of factors affecting investment potential, determining the quantitative ties between them.

The regions of Uzbekistan are characterized by their variety of colors. Therefore, in order for a potential investor to make an investment decision, objective information about the investiture potential of each area should be available. And the creation of a system for assessing the investment potential of territories is a prerequisite for the development of the state and territories.

The study of the investment potential of the country, its disclosure on a comprehensive scientific and methodological basis, first of all, assumes the research of the socio-economic, innovative, Labor potential of the regions of the country, as well as the analysis of scientific views in this area. After all, since ensuring the socio-economic development of the country depends on the investiture environment (climate), investors develop their decisions accordingly. It would be appropriate to note that in a context where globalization processes are taking place in the world, the integration of the country's territories in international relations, participating in socio-economic processes as an economic subject, is gaining its place.

The object of research was the use of indicators for the period from 2016 to 2022 of improvement of the mechanism for determining the investment potential of OJSC Uzbekneftgaz and other joint-stock companies.

Keywords: *investments, investment activities, investment project, financing, investment loan, syndicated loan, securities, capital, risk, deposit, investment portfolio*

MUNDARIJA

ANNOTASIYA.....	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	13
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	14
1.6. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	15
2.1. Kirish.....	15
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	16
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	23
III BOB. METODOLOGIYA.....	31
3.1. Tadqiqot dizayni.....	31
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	31
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	32
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlari.....	32
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechim... 32	
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	32
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	34
O'zbekistonda investitsiya salohiyatini aniqlash mexanizmini	
4.1. takomillashtirishning usul va vositalarining samaradorligini 34	
baholash uslublari.....	
O'zbekistonda investitsiya salohiyatini aniqlash mexanizmini usul	
4.2. va vositalarini takomillashtirishda O'zbekneftgaz" AJ hamda boshqa 43	
aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya faoliyati tahlili.....	
Investitsiya salohiyatini aniqlash mexanizmini qo'llab-	
4.3. quvvatlashning usul va vositalarining umumiy ko'rsatkichlari, 53	
tarkibiy o'zgarishlar va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	
V BOB. XULOSA.....	62
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	62
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	63
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	67

I BOB. KIRISH

1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalb etish, investitsiyalarni oqsoqlanayotgan tarmoqlarga safarbar etish hamda O'zbekistonda investitsiya salohiyatini aniqlash mexanizmini takomillashtirish mamlakatimiz oldida turgan asosiy dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ayni vaqtda shuni tan olish kerakki, milliy iqtisodiyotimizga investitsiya kiritish salohiyatiga ega bo'lgan chet ellik investorlar bilan talab darajasida ish olib borilmayapti. Xususan, real vaqt sharoitida O'zbekistondagi sarmoya kiritish uchun mavjud bo'lgan katta imkoniyatlar, shuningdek investorlar uchun yaratilgan har tomonlama keng, qulay shart-sharoit va kafolatlar bo'yicha zarur hamda investitsiya loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning usul va vositalari yuzasidan kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati hali hamon past darajada saqlanib qolmoqda. Shu ma'noda investitsiya loyihalarini jalb etishda mamlakat ijtimoiy va siyosiy muhitini yaxshilash, turli xil preferensiyalar, past darajadagi soliq stavkalarini joriy etish, shu bilan bir qatorda kelajakda tuziladigan shartnomalar yuzasidan, etuk kadrlarni tayyorlash, malaka oshirishni tashkillashtirish va albatta, O'zbekistonda investitsiya salohiyatini aniqlash mexanizmini takomillashtirish amaliyotiga ta'sir etayotgan salbiy jihatlarini bartaraf etish kabi dolzarb masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bunday sharoitda mamlakatimizda olib borilayotgan faol investitsiya siyosati respublika milliy iqtisodiyotini istiqboldagi raqobatbardoshligini oshirish hamda investitsiya salohiyatini aniqlashni takomillashtirish muhim moliyaviy omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan, hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatidan ko'zlangan eng asosiy maqsad investitsiya salohiyatini aniqlashning usul va vositalarini takomillashtirish orqali xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilayotgan korxonalarining mahsulot yoki xizmatlarini eksportga yo'naltirishdan iborat.